

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI PARRANDACHILIK
XO‘JALIKLARDA TUXUM YO‘NALISHIDAGI TOVUQLARDA
NASILCHILIKNI TASHKILLASHTIRISH ORQALI
ULARNING MAHSULDORLIGINI OSHIRISH**

B.f.n.dok. **J.Saparbaev**, magistrant **Z.Umirbekova**

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va
Agrotexnologiyalar instituti

Annotasiya. Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi parrandachilik xo‘jaliklari sharoitida nasilchilik chora-tadbirlarini olib borgan holda, qishloq xo‘jaligining parrandachilik sohasida erishish mumkin bo‘lgan yutuqlar, parrandachilikda nasilchilik-seleksiya ishlarini amalga oshirgan holda sohada samaradorlikini oshirish usullari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Parranda, tuxum, tuxumdor tovuqlar, “Rod-Ayland”, “N’yu Gempshir”, “Plimutrik”, “Avstralarp”, “Yurlovskaya”, kurka, g‘oz, o‘rdak.

Abstract. The article discusses the achievements that can be achieved in the poultry farming industry by carrying out breeding activities in the conditions of poultry farms of the Republic of Karakalpakstan, methods for increasing the efficiency of the industry through breeding and breeding work. are mentioned in poultry farming.

Key words: poultry, eggs, laying hens, “Rhode Island”, “New Hampshire”, “Plymouth”, “Australarp”, “Yurlovskaya”, turkey, goose, duck.

Yurtimizda oziq-ovqat siyosati, aholini arzon va sifatli mahsulot bilan ta’minlash, hamda aholi jonboshidan ortgan mahsulotlarni chetga eksport qilish ham shu asnosida davlatimiz iqtisodiy ahvolini yanada barqarorlashtirish ustida olib borilayotgan

innovations yangiliklar, chora-tadbirlar o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Ko‘plab sohalar qatori, parrandachilik ham jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda.

Mavzuning dolzarbliji. Respublikamizda parrandachilik sohasini yanada rivojlantirish, go‘sht va go‘sht mahsulotlari hamda oziq-ovqat unumlari sifatini yanada yaxshilash, aholining tabiiy mahsulotlarga bo‘lgan talabini qondirish, shu jumladan parranda va parranda go‘shti hamda tuxum mahsuloti bilan ta’minlash borasida ko‘plab chora-tadbirlar ishlab chiqilayotganligiga qaramasdan, yurtimizda aholi soni jadal sur’atlarda o‘sib borayotganligini hisobga olgan holda arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bugungi kunda bir qancha izda qolib bormoqda. Ayniqsa, mahsuldorligi yuqori bo‘lgan tuxum yo‘nalishidagi tovuq zotlarini yaratish, hamda ularni to‘g‘ri parvarish qilish, bugungi kundagi aktual muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

V.V.Fedinandov tomonidan o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar parrandalarni somatik gibridlash muxim amaliy axamiyatga egaligi, tuxumlarni morfologik tuzilishi va uni inkubatsiyalashdagi axamiyati, tuxumlarni saqlashda issiq manbai va issiqlik o‘tkazuvchanligi, tuxumlarni sun’iy inkubatsiyalashdagi tartiblarni o‘rganish va bu borada bergen takliflari parrandachilikda katta axamiyatga ega. [3]

Parrandalarning eksterieriga qarab uning aniq mahsuldorligini bilish qiyin, lekin uni tekshirish orqali tuxum berish yoki bermasligini bilish mumkin. Shu sababli eksterierini o‘rganish qushlarni nasilchilik va sanoat qush fermalarida ancha ahamiyatga ega. Parrandalarning bazi bir eksterier belgilari yilning mavzumiga bog‘liq turda o‘zgaradi. Bundan oziqlantirish, saqlash, fiziologik holatiga bog‘liq. Ko‘proq eksterier belgilarining o‘zgarishi ko‘payish organlarining vazifalari orqali o‘zgarib boradi. Masalan, qushlarni tuxum tug‘ish paytida tirik vazni, tuxumdon hajmi, tuxum yo‘li va hazm qilish organlari kattalashadi, yoki kengayib boradi. Tuxum berish tugasa, teri pigmentatsiyasi tiklanadi. Tana holatiga qarab qushlar tuxum berishi aniqlanadi. Parrandalar tuxum tug‘ishi oldidan tanasi kengayib, toj rangi tiniq qizil rangda bo‘ladi. Tuxum tug‘gandan keyin toji oqarib, qattiq bo‘lib qoladi. [2]

Akademik M.F.Ivanov tomonidan parrandachilikda naslchilik ishlari, seleksiyalash va iqlimlashtirish borasida, zotlarni takomillashtirish, tanlash-saralash ishlarini olib borish va saqlash asrash, oziqlantirish borasida ham nazariy ham amaliy takliflarni berdi. [1]

Professor P.M.Sopikov tomonidan birinchi bo‘lib parrandalarda qon quyish usulida chatishtirish bilan yaxshilovchi gemogibridlash uslubi yaratildi. Yuqori mahsuldorlikka ega bo‘lgan zotlararo va turlararo duragay parranda zotlari, zot guruhlarini yaratishga muyassar buldi. O’tkazilgan tajribalar, ilmiy izlanishlar shuni ko’rsatdiki birgina tanlash ishlarini o’tkazish bilan yuqori sifatli zotni yaratishni ta’minlash mumkin emasligini ta’kidlaydi. [4]

Tadqiqotlar ob’ekti va uslubiyatlar: Tajribalar Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar universiteti amaliyot maydonida o’tkazildi. Amaliyot maydonida 10 dona tovuq alohida olinib, ularni ikki guruhgaga ajratildi. Guruhlarning birinchisi tajriba guruhi bo‘lib, ularni turg‘un va o‘zgaruvchan ratsionda oziqa berildi. Ikkinci guruh nazorat guruhi bo‘lib, bu guruhgaga kundalik oziqalar berilib, doimiy nazorat qilib turildi. Birinchi guruhda bo‘lgani kabi ikkinchi guruhgaga ham alohda parvarish usullari qo‘llanildi. Tajribalar 4 hafta davomida o’tkazildi. Bu davr davomida stabil ravishda turli izlanishlarni amalga oshirdi, oziqlantirish, sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilgan holda parvarishlash ishlari olib borildi, hamda doimiy kuzatishlar natijasi va ko’rsatkichlar qayd etib borildi. Tajribalar boshlanishidan oldingi va tajribalardan keyingi mahsuldorlik ko’rsatkichlari solishtirib borildi. Izlanishlar yakuniga kelib har bir tovuqdagi va guruhdagi umumiyl parranda soni miqyosida solishtirishlar shuni ko’rsatdiki, tajriba guruhidagi tovuqlarda mahsuldorlik 18,4 foizga ortganligi aniqlandi. Bu usullarni butun bir parrandachilik xo‘jaligida qo‘llash yo‘lga qo‘yilsa tajribada olingan natijaga tez sur’atlarda yetish mumkin. Bunda ishchi kuchini hamda vaqtini ikki barobar tejagan holda mahsulot samaradorligini bir yarim barobarga oshirish mumkin. Tajriba tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda o’tkazilgan bo‘lsada, ularning go‘sht mahsuldorligida ham bir muncha o‘zgarish bo‘lganligini aytib o‘tish joiz. Tajriba guruhidagi tovuqlarda tuxum

unumdorligi bilan bir qatorda go'sht mahsuloti miqdori va sifatida ham sezilarli o'zgarish kuzatildi. Tajribalar yakuniga kelib tuxum olish soni, stabilligi hamda tuxumning sifati, skarlupa qavatining mustahkamligi, tuxum ichki komponentlarining muttanosibligi, ularning hajmi, normal konsentratsiyasi shu bilan birga ko'plab ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar yaxshi eksnligi aniqlandi.

Xulosa. Parrandalarda nasilchilik ishlarini olib borgan holda, ularning mahsuldorligini orttirish, yangi tuxum yo'nalishidagi tovuq zotlarini yaratishda ularga beriladigan ozuqa miqdori va tarkibidagi turli komponentlar hamda parrandalarni parvarish qilishda sanitariya-gigiena talablariga to'liq amal qilish, shu bilan bir qatorda tuxum mahsuldorligiga zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldini olish, turli xil zararkunandalar va parazitlarning har xil zararli ta'sirlariga qarshi ertachi chora-tadbirlar o'tkazish, parrandachilik sohasining rivojlanishi hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulaotlari bilan taminlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.F.Ivanov "Hayvonlarning ko'paytirish biotexnikasi" 54-58 bet.
2. N.I.Starshikov "Parrandachilik Asoslari" 30-32 bet.
3. V.V.Fedinandov "Parrandachilikda samaradorlikni oshirish" 7-8 bet.
4. П.М. Сопиков "Международный журнал научных исследований "Научный Импульс" 21-23 стр.